



Linguistic features of the work "Kisasi Rabguzi" (on the example of Abraham and Sarah salawatullah)

Nargizakhan MAKHMUDJONOVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form

10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

agreement,
plural,
possessive category,
lexical units,
phonetic phenomena,
intertextuality,
symbol,
diagnosis.

ABSTRACT

This article analyzes the story of Abraham and Sora salavotullohi in detail, phonetically, lexically, morphologically in-depth and atrophically, with special attention to words and suffixes.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp447-452>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining til xususiyatlari (Qissasi vafoti Ibrohim va Sora salavotullohi alayhim qissasi misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

kelishik,
ko‘plik,
egallik kategoriyasi,
leksik birliklar,
fonetik hodisalar,
intertekstuallik,
ramz,
tashxis.

Ushbu maqolada „Qisasi Rabg‘uziy“ asaridagi Qissasi vafoti Ibrohim va Sora salavotullohi alayhim qissasi so‘z va qo‘shimchalarga alohida e‘tibor bergan holda fonetik, leksik, morfologik jihatdan chuqur va atroflicha tahlil etiladi.

¹ Student, Philology Direction, Andijan State University.

Языковые особенности произведения «Кисаси Рабгузи» (на примере рассказа о смерти Ибрагима и Сары салауатуллахи алайхим)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

согласие,
множественное число,
притяжательная
категория,
лексические единицы,
фонетические явления,
интертекстуальность,
символ,
диагноз.

В этой статье подробно и подробно анализируются фонетически, лексически, морфологически рассказы Ибрагима и Сары салауатуллахи алайхим, с особым вниманием к словам и суффиксам.

Kelishik kategoriyasi

KELISHIKLAR	QO'SHIMCHALAR	MISOLLAR
Bosh	–	Sora, Ibrohim, kimi
Qaratqich	- ning	Yufturoning, Ibrohimning, kim ersaning
Tushum	- ni, – n	Ani, qizin, jonin, yarog'in
Jo'nalish	- g'a, - ga, -ka	saqolingg'a, saqolingga, do'stg'a, ko'kka,
O'rin- payt	- da	o'lmishda, yilda, tug'mishda, yerinda (n tovushi orttirilgan)
Chiqish	- din	o'g'uldin, jalladin, Ibrohimdin
Vosita	–	–

Ko'plik qo'shimchasining ifodalanishi

- lar: Ulug'lari Ismoil va Ishoq alayhimas-salom azin onalig'lar erdilar.

Asarda qo'llangan egalik qo'shimchalari

-im (Maning ajalimdin bir yil burun manga xabar bergil. Andog' ersa jonim olg'il),
-ing (Ibrohim, saqolingg'a urung qachon kirdi. Ibrohimdin burun kim ersaning saqolingga urung kirmish yo'q erdi), -i (Ibrohim ani Kan'on haddinda Falastin yerinda dafn qildilar. Jon bermak qattig'liqi netak turur?)

Leksik birliklar va ularning xususiyatlari

Azin – boshqa, o'zga. Azin so'zi aslida ravish so'z turkumiga mansub bo'lib, u ravish – ko'makchi tarzida qo'llanadi. Azin ko'makchisi qadimgi turkiy yodgorliklarda (adin tarixiy taraqqiyot natijasida d/z hodisasiga uchragan) keng iste'molda bo'lib, 13–14-asrlarga oid ayrim manbalarda ham qo'llangan: Tamâshadin azin hech ishlari yoq.

Asarda qo'llanishi: Azin kishi olmadi. Ma'nosi: Boshqa ayolga uylanmadi.

Kezin – keyin, so'ng. Bu so'z ham ravish – ko'makchi sanalib, 15- asrga qadar kezin (qadimgi turkiy yodgorliklarda kedin) shaklida qo'llangan: Yoq erdi qazg'usi andin kezin hech.

Asarda qo'llanishi: Sorada kezin Ibrohimning ikki yarim yilda vafot qildi. Ma'nosi: Sora vafotidan so'ng ikki yarim yil o'tib Ibrohim ham vafot qildi.

Urung – oq rang. "Ey Ibrohim, saqolingg'a urung qachon kirdi. Ya'ni Soqoling qachon oqardi. oqarishni boshladi.

Og'durmoq – yetkazmoq, chiqarmoq: Jonin oldi ko'kka og'durdi. Jonini olib ko'kka yetkazdi. Orttirma nisbat ma'nosida. Asos og'moq – di – o'tgan zamon qo'shimchasi, -r- orttirma nisbat shakli.

Unamaz – xohlamas. Do'st do'stg'a ulanmoqni unamazmu bo'lur? Bu so'z s// z fonetik hodisasiga uchragan: unamas – unamas kabi.

Qamug' – barcha, hamma. Olmosh. Qamug' yalavochlar joni o'tru yurudilar.

Yalavoch – xudoning elchisi, payg'ambar. Ot so'z turkumi.

O'tru – qarshisida, yuzma-yuz. Ot ko'makchi. Endi yuqoridagi gapning mazmuni oydinlashadi. Jonini olib ko'kka yetkazdi. Endi uning ruhi barcha payg'ambarlar joni, ruhi oldida yurar edilar.

Unoq – chopqi. Ot so'z turkumi.

Tebasiga – tepasiga, ustiga. Ot ko'makchi. B//p fonetik hodisasiga uchragan so'z.

Taqi – yana. Miqdor bildiruvchi ravish so'z turkumiga mansub so'z. Taqi ming yo'li qilich birla chopsalar... Yana ming marta qilich bilan chopsalar ma'nosida.

Ko'zmoq – qo'ymoq. Fe'l so'z turkumiga oid so'z. y//z fonetik hodisasiga uchragan. Ismoilni Xijoz yerinda xalifa kezdi. Ismoilni Xijozga xalifa qilib qo'ydi, tayinladi.

Haddinda – chegarasida ma'nosida qo'llangan bo'lishi mumkin: Ibrohim ani Kan'on haddinda Falastin yerinda dafn qildilar.

Qo'l – iltimos qilmoq, so'ramoq ... qo'lmish erdi – so'rar edi, iltimos qilar edi.

Fonetik hodisalar

O'tuz – son so'z turkumi arab tilida ikkalantirish uchun tashdid belgisi qo'yiladi. Bu so'zda ham bo'lishi kerak bo'lgan ammo ko'chirilishda tushirilgan bo'lishi mumkin. Sekiz so'zida ham shu holat kuzatilgan. G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov muallifligidagi O'zbek tilining tarixiy grammatikasi kitobida "Tarkibli sanoq sonlarning katta son oldin, kichik son keyin keladi" (127b) degan qoidaga muvofiq tarzda qo'llangan: yuz o'tuz kabi.

Anda – olmosh so'z turkumi. U olmosh hisoblanadi. U tarzida ham a tarzida ham qo'llanilgan.

Yerinda – yer+ i + (n) +da. Bu yerda n tovushi orttirilgan. Quyidagi so'zlarda ham shu holat kuzatilgan: haddinda, o'yinda, vaqtinda, tebasiga, viloyatinda,

Tirik erkincha – to tirik paytigacha. Bu so'zda ham n tovushi orttirilgan: erk+ i (n) + cha (ravish yasovchi qo'shimcha).

Otlig' – lig' ham ot yasovchi, ham sifat yasovchi qo'shimcha. ... Futur otlig' qizin oldi. Bu yerda -lig' qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha. Futur otli qizini oldi.

Panjshanba – bu so'z tarixiy taraqqiyot natijasida payshanba tarzida qo'llanadi. Aslida panjshanba tarzida qo'llanishi maqsadga muvofiqdir: panj- besh, shanba – shanba, ya'ni shanbadan keyin keluvchi beshinchi kun. Hafta hisobi shanbadan boshlangan desak, noto'g'ri bo'lmas, chunki Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostonidagi hikoyat ham shanba kundan boshlanadi.

Yuz yigirmi – 20 soni XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklarda asosan oxirgi unlisi [i] bilan kelgan yigirmi shaklida yozilgan. XV asr va undan keyingi davrlarga oid manbalarda yigirmi shaklida ham, yigirmä shaklida ham yozilavergan.

Yoshab – yashab o//a hodisasiga uchragan.

Aymishlar – t tovushining tushish hodisasi kuzatiladi bu so'zda. Ammo U. Tursunov, B. O'rinboyev, A. Aliyevlarning O'zbek adabiy tili tarixi kitobida Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari tahlili bayonida hikmatlar tilida arxaik so'zlar uncha

ko'p emasligi ta'kidlanib, misol sifatida keltirilgan so'zlar qatorida ay so'zi ham mavjud bo'lib, ma'nosi aytmoq shaklida berilgan. Demak, aytmoq so'zining asl varianti aymoq tarzida bo'lgan ekan. T tovushi esa tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida qo'llangan bo'lib chiqadi.

Istisno holat: saqolingg'a va saqolingga so'zlari tarkibi bir xil bo'lsa- da, ikki xil qo'shimcha qo'shilgan.

Urungligi – oqligi. Asos – urung+ lik (ot yasovchi qo'shimcha) + i (egalik affiksi) =Natijada k tovushi g tovushiga o'zgargan: tovush almashishi fonetik hodisasi.

Istisno holat: O'ng'ayliqi- o'ng'ay (qulay)+ lik+ i= o'ng'ayliqi. Qattig'liqi so'zi ham shunday.

Qo'llangan leksik birliklarning alohida ma'no xususiyatlari.

Ulug'lari Ismoil va Ishoq alayhimas – salom azin onalig'lar erdilar. Ulug'lari otlashgan sifat turkumiga mansub so'z bo'lib, matnda son ma'nosini ifodalash uchun qo'llanigan. Ya'ni bu yerda ulug' so'zining ma'nosi biror bir ishga nisbatan yoki martabaga nisbatan qo'llanilgan deya tushunmaslik kerak. O'z ma'nosidan tashqari bu so'zga to'ng'ich farzand degan sema yuklatilgan. Ammo to'ng'ich farzand bitta bo'ladi (u zamonga nisbatan boshqa farzandlardan oldin dunyoga kelgan) degan savol kuzatilishi mumkin. Qissada Ibrohim alayhissalomning sakkizta farzandi bor ekanligi aytiladi. Shuning uchun ham yuqoridani ikki farzandga nisbatan to'ng'ichlari deya ishlatilgan. (to'ng'ichi, to'ng'ichdan keyingisi deyish biroz g'alizroq) Bi bilan ular orasidagi farq uncha katta emasligi kabi holatni ham ifodalash mumkin.

... kimi musulmon, kimi kofir (bo'ldi ma'nosida). Bunda kimi so'roq olmoshi qaysi so'roq olmoshi o'rnida qo'llangan. Kim so'rog'i faqat insonlarga nisbatan ishlatiladi. Qaysi olmoshi ham bundan mustasno emas. Chunki u ham shaxsga (Qaysi biri mehnatsevar: albatta otlashgan holatda) , ham narsaga, ham voqea – hodisaga nisbatan qo'llaniladi. Kimi o'rniga qaysidir birini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. U holdagi ma'no Qaysidir biri musulmon bo'ldi, qaysidiri kofir. Ammo bu holatda ham tahlil tugal bo'lmaydi. Chunki matda gumon olmoshiga yaqqol ishora mavjud. Demak, kimi olmoshi kimdiri olmoshining qisqargan varianti tarzida qo'llangan.

... do'st do'stg'a ulanmoqni unamazmu bo'lur? Bu gapdagi yuklamaning qo'llanilishiga e'tibor qaratmoq darkor. Yuklamalar, odatda, gap oxirida qo'llanishi ehtimoli katta (aynan so'roq yuklamalari haqida gap ketmoqda): Seni ot kuydurmäsmu? tarzida. Lekin unamazmu bo'lur (unamaz bo'lurmi tarzida emas) tarzida qo'llanishi so'roq yuklamasi yordamida ta'kidning kuchayishiga ortishiga sabab bo'lmoqda.

... Sora birla qo'sha qo'ydilar gapida qo'sha so'zi ikki yoki umuman juft degan ma'noni bildiradi. Undan tashqari qo'shmoq fe'lga – a ravishdosh affiksi qo'shilishi natijasida ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi hosil bo'lgan deyish mumkin. Ikki holatda ham juft, birga qo'ymoq ma'nosi mavjud. Ya'ni Sora bilan qabrga birga qo'ydilar kabi.

Qo'shimchalarning o'rin almashishi va ularning ma'noga ta'siri

Sora yuz o'tuz yashadi anda kezin vafoti bo'ldi: Sora o'ttiz yil yashadi, undan so'ng, keyin vafot etdi. Bunda o'rin – payt qo'shimchasi chiqish kelishigi qo'shimchasi o'rnida qo'llangan (Bashini uch yerdä yardilar – o'rin payt kelishigi shakli boshqa kelishiklar o'rnida ham qo'llanadi) va bundan biz ikki qo'shimchaning sinonimligini anglagan holda o'qish jarayonida qo'shimchalardan munosibini qo'llab, tushunishga harakat qilamiz.

Sorada kezin Ibrohimning ikki yarim yilda vafot qildi: Soradan so'ng, Sora foniyl dunyodan rihlat qilgandan ikki yarim yil o'tib Ibrohim ham vafot etdi tarzida ifodalanishi kerak bo'lgan fikr qo'shimchalar vositasida sintaktik butunlikni biroz o'zgartirgan. Bu

gapda ham o'rin – payt kelishigi chiqish kelishigi qo'shimchasi o'rnida qo'llangan hamda qaratqich kelishigi bosh kelishigi o'rnida qo'llangan (qaratqich va bosh kelishigi qo'shimchalari o'zaro sinonim).

Is'hoq ismining esa hech qanday tutuq belgisiz qo'llanishi tarixga va so'z ma'nosiga e'tibor qaratgan o'quvchi uchun tushunishdagi noaniqlikka sabab bo'lmasa kerak.

Ibrohim ani bildi ersa aydi: Ibrohim buni bilgan holda aytdi ma'nosida.

Sinonim so'zlar

1. Vafoti bo'ldi – o'lim holati kuzatildi.

1.1 vafot qildi – o'ldi ma'nosida.

1.2 jon bermak – o'lmoq.

Yuqoridagi barcha sinonim so'zlar o'lmoq, ya'niki ajali yetib o'lmoq ma'nosini beradi. Ularning safiga jon olmoqni ham kiritish mumkin bo'ladi. Faqat kimdir vositasida amalga oshiriladi. Shu jihatdan ma'nosi biroz o'zgaradi.

2. Dafn qilmoq – ko'mmoq. Sinonim so'zlar orasida faol qo'llanadi.

2.1 qo'sha qo'ymoq – dafn qilmoqqa mazmuniy tarzdagi sinonim bo'ladi hamda ma'noviy sinonim deya nomlanadi. Faqat juft holda ma'nosi qo'shimcha tarzda bu so'zga yuklanadi.

Antonim so'zlar

Qattig'liqi va o'ng'ayliqi. Qattig'liqi – qiyinchiligi, o'ng'ayliqi – osonligi ma'nosida. Ushbu so'zlar ma'noviy antonimiyani hosil qilgan.

Intertekstuallik holati

Intertekstuallik (lot. inter – aro, textum – to'qima, mato, matn) – fanga Kristeva tomonidan kiritilgan bo'lib, unga ko'ra, har qanday matn avval mavjud bo'lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o'ziga singdirgan suratlar majmuidir. Umuman olganda "Qissasi Rabg'uziy" asarida ko'plab oyat, hadis va so'z arabcha she'rlardan foydalanilgan va shuning natijasida ta'sir doirasi juda keng qamrovlidir. Quyida hadis va ularning ma'nolarini keltirib o'tamiz.

Va barakna alayhi va ala Ishaqa va min zurriyyatixima muhsinun va zolimun linafsihi mubinun.

Ma'nosi: *Va barakot berdik biz unga va Ishaqqa va har ikkalasining zurriyotlaridan ba'zilari yaxshi ishlar qilguvchi bo'lurlar va o'z nafsiga ochig'dan ochiq zulm qiluvchilar ham bo'lur.*

Xal ra 'ayta xalilan yaqbazu ruha xalilixi

Ma'nosi: *Do'st do'stning jonin olurmu bo'lur.*

Ramzning qo'llanishi

... Saqol urungligi o'lum elchisi turur. Ya'ni soqolning oqligi – o'limning belgisi. Soqol oqargani ba'zi istisno holatni olmaganda qarilik belgisi hisoblanadi. Inson qariligi esa uning soch – soqolining oqarishi va tashqi ko'rinishi orqali anglanadi. Qarilik davri esa foniy olamga safarning yaqinligini anglatadi.

Tashxis

Tashxis – jonsiz narsalarga jon ato etish. Jonning gapirishi, boqiy dunyoga rihlat qilgan jonning so'zlashi bu tashxisdir. Ibrohim joni aydi: Kim ersani ming yo'li unoq birla o'rtara yorsalar, taqi ming yo'li qaynar suvni tebasiga qo'ysalar, taqi ming yo'li qilich birla chopsalar, necha tenglik emgansa, manga andog' erdi. Biz asardagi bir qissani tahlil qilish orqali XIII–XIV asrga oid til xususiyatlarni ko'rib o'tdik. Va asarga xos bo'lgan,

shuningdek boshqa yodgorliklarda ham uchraydigan mushtarak holatlardan ko'ra farqli xususiyatlarga e'tibor qaratdik va Rabg'uziy mahoratiga yana bir bor amin bo'ldik. Rabg'uziy tilining soddaligi va bir so'zda turli xil ma'nolarni ifodalash mahorati diqqatga sazovordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. T.: "Yozuvchi " nashriyoti. 1990.
2. G', Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti. 2008.
3. У. Турсунов, Б. Уринбобоев, А. Алиев. Узбек адабийтили тарихи. Т.: Укитувчи . 1995.
4. Д. Куронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик лугати. Т.: Академнашр, 2010.